



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN POLITEKNIKA
UNIVERSITETI**

Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

60711500 – Aviatsiya muhandisligi
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60711500 – Aviatsiya muhandisligi

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN POLITEKNIKA UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: ABDUJABAROV NURIDDIN ANVAROVICH

Toshkent davlat transport universiteti

falsafa doktori (PhD)



A'zo: JASMINA CASALS

Polytechnic University of Catalonia

falsafa doktori (PhD), professor

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260111
Xulosa raqami	1071
Xulosa sanasi	23.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN POLITEXNIKA UNIVERSITETI" NODAVLAT TA'LIM MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Olmazor tumani, Kichik xalqa yo'li, Niyazov ko'chasi, 17-uy. Guvohnoma: MAS № 0000285, 08.07.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Aviatsiya muhandisligi
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60711500
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000285, 08.07.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60711500 – Aviatsiya muhandisligi
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60711500 – Aviation Engineering
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60711500 – Авиационный инжиниринг
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	ingliz
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	1. Muhandis-mexanik (aviasozlik bo'yicha); 2. Aviatsiya muhandisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	120 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Olmazor tumani, Kichik xalqa yo'li, Niyazov ko'chasi, 17-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob doirasida belgilangan mezonlar asosida tashkiliy-boshqaruv tizimi va ta'lim sifatini ta'minlash jarayonlari kompleks tahlil qilindi. Universitet faoliyatini tashkil etish uchun zarur tashkiliy tuzilmalar shakllantirilgani, ularning faoliyati yo'lga qo'yilgani hamda ta'lim sifati ustidan nazoratni takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar rejasi tasdiqlangani aniqlandi. Ish beruvchilar bilan muntazam hamkorlik va monitoring ishlari olib borilishi, olingan natijalardan ta'lim dasturini takomillashtirishda foydalanish amaliyoti mavjudligi kuzatildi. Aviatsiya muhandisligi kabi yuqori mas'uliyat talab etadigan yo'nalishda ish beruvchilar bilan doimiy aloqalarni yo'lga qo'yish ta'lim dasturining zamonaviy ishlab chiqarish va mehnat bozori talablariga mosligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, istiqbolli rivojlantirish rejalari hamda ichki sifatni ta'minlash mexanizmlarining shakllantirilgani qayd etildi. Umuman, tashkiliy-boshqaruv tizimi va ta'lim sifatini ta'minlash bo'yicha yaratilgan amaliyot belgilangan mezonlar talablariga mos kelishi tasdiqlandi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob doirasida ta'lim dasturining mazmuni, o'quv rejalari va malaka talablari belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. "Aviatsiya muhandisligi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quv rejaning to'liq qayta ishlab chiqilgani hamda tasdiqlangan malaka talablari asosida muvofiqlashtirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining mazmuni, o'quv fanlari tarkibi va kutilayotgan ta'lim natijalari amaldagi me'yoriy hujjatlar talablariga mos ravishda shakllantirilgani kuzatildi. O'quv rejaning malaka talablariga muvofiq takomillashtirilgani ta'lim dasturini yanada sifatli tashkil etish va uning dolzarbligini oshirishga xizmat qilishi qayd etildi. Aviatsiya muhandisligi yo'nalishida ta'lim mazmunining xalqaro aviatsiya standartlari, zamonaviy texnologiyalar hamda

sanoat ehtiyojlari bilan uyg'unligini ta'minlash muhim omillardan biri hisoblanadi. Umuman, ta'lim dasturining mazmuni va tuzilishi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob doirasida o'quv jarayonini tashkil etish, malakaviy amaliyot va ta'lim natijalarini baholash tizimi belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. Universitet hamda ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi tegishli shartnomalar tuzilgani, "Aviatsiya muhandisligi" ta'lim yo'nalishi bo'yicha talabalarning "Toshkent mexanika zavodi" AJ, "Uzbekistan Airways Technics" MChJ, "Uzbekistan Airports" AJ hamda "Chirchiq aviatsiya" korxonasi kabi tashkilotlarda malakaviy amaliyot o'tashi nazarda tutilgani aniqlandi. Yetakchi aviatsiya korxonalarida amaliyot o'tash imkoniyatining yaratilgani talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlash, kasbiy kompetensiyalarini real ishlab chiqarish va texnik xizmat ko'rsatish sharoitida shakllantirishga xizmat qilishi kuzatildi. O'quv jarayoni kredit-modul tizimi talablari asosida tashkil etilgani, ta'lim natijalarini baholash mexanizmlari amaldagi me'yoriy talablarga muvofiq yo'lga qo'yilgani qayd etildi. Umuman, o'quv jarayonini tashkil etish, malakaviy amaliyotni yo'lga qo'yish va baholash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob doirasida talabalar faoliyatini tashkil etish, ularga yaratilgan shart-sharoitlar hamda qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. Ta'lim oluvchilar uchun zarur akademik va tashkiliy sharoitlar yaratilgani, o'quv jarayonida talabalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari va davomatiga oid ma'lumotlarni muntazam kuzatish hamda ular bilan tanishish imkoniyati mavjudligi aniqlandi. Qabul parametrlari ta'lim yo'nalishi bo'yicha mavjud resurslar va talabalarni sifatli o'qitish imkoniyatlariga mos ravishda shakllantirilgani, o'quv yuklamasining professor-o'qituvchilar o'rtasida belgilangan me'yorlar asosida taqsimlangani kuzatildi. Talabalarning akademik natijalari to'g'risida uzluksiz axborot olish imkoniyatining yaratilgani ta'lim jarayonining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga xizmat qilishi qayd etildi. Shuningdek, talabalarni akademik va ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining amaliyotga joriy etilgani aniqlandi. Umuman, talabalar faoliyatini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob doirasida professor-o'qituvchilar tarkibi, ularning kasbiy salohiyati hamda mehnat faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq jarayonlar belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. Professor-o'qituvchilarning samarali faoliyat yuritishi uchun zarur tashkiliy va mehnat sharoitlari yaratilgani aniqlandi. Kadrlar bilan ta'minlashning asosiy manbai sifatida universitet magistraturasi hamda 05.02.08 – "Uchish apparatlarini loyihalash, ularning konstruksiyasi va ishlab chiqarilishi" ixtisosligi bo'yicha tashkil etilgan doktorantura faoliyat yuritishi qayd etildi. Ta'lim muassasasining o'z magistratura va doktorantura dasturlari orqali ilmiy-pedagogik kadrlar zaxirasini shakllantirish amaliyoti aviatsiya muhandisligi kabi tor ixtisoslashgan yo'nalishda malakali mutaxassislar uzluksizligini ta'minlashga xizmat qilishi kuzatildi. Shuningdek, professor-o'qituvchilarni kasbiy rivojlantirish va rag'batlantirish mexanizmlarining yo'lga qo'yilgani aniqlandi. Umuman, inson resurslarini shakllantirish va rivojlantirish tizimi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob doirasida universitetning moddiy-texnik bazasi, o'quv infratuzilmasi hamda ta'lim resurslarining holati belgilangan mezonlar asosida tahlil qilindi. Universitetda zamonaviy talablarga javob beradigan moddiy-texnik baza shakllantirilgani, sport majmuasi, kompyuter texnikalari bilan jihozlangan axborot-resurs markazi, zarur miqdordagi o'quv o'rinlari hamda internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi. O'quv auditoriyalarining belgilangan talablarga mosligi, ularning sig'imi talabalar kontingentiga muvofiq ekani hamda o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur sharoitlar yaratilgani kuzatildi. Aviatsiya muhandisligi yo'nalishida ixtisoslashgan laboratoriyalar va texnik bazani rivojlantirish, ularning sanoat korxonalaridagi amaliyot bilan uzviy bog'liqligini yanada kuchaytirish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Umuman, moddiy-texnik ta'minot va ta'lim infratuzilmasi belgilangan mezonlar talablariga mosligi tasdiqlandi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Aviatsiya yo'nalishi uchun ixtisoslashgan laboratoriya va texnik bazani rivojlantirish tavsiya etiladi.
- ✓ Sanoat korxonalari bilan amaliyot hamkorligini chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Ixtisoslashgan aviatsiya laboratoriyalari va texnik bazani rivojlantirish.
- ✓ "Toshkent mexanika zavodi", "Uzbekistan airways technics" va boshqa korxonalar bilan amaliyotni chuqurlashtirish.
- ✓ Magistratura va 05.02.08 doktorantura orqali kadrlar zaxirasini shakllantirishni davom ettirish.
- ✓ Xalqaro aviatsiya standartlarini o'quv jarayoniga izchil tatbiq etish.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida 60711500 – "Aviatsiya muhandisligi" bakalavriat ta'lim dasturi (ta'lim tili – ingliz) bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, inson resurslari hamda moddiy-texnik baza kompleks ravishda tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar natijasida ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur institutsional asoslar, tashkiliy-boshqaruv tizimi va ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari shakllantirilgani aniqlandi. Ta'lim dasturining mazmuni Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi hamda xalqaro yondashuvlar asosida ishlab chiqilgani, o'quv jarayoni kredit-modul tizimi talablari asosida tashkil etilgani va ta'lim natijalarini baholash tizimining amaldagi talablarga mosligi kuzatildi. Professor-o'qituvchilar tarkibi ta'lim dasturini sifatli amalga oshirish uchun yetarli salohiyatga ega ekani, moddiy-texnik baza, o'quv infratuzilmasi va raqamli ta'lim resurslari o'quv jarayonini samarali tashkil etish imkonini berishi qayd etildi. Tahlil jarayonida aniqlangan ayrim jihatlar ta'lim dasturini amalga oshirishga salbiy ta'sir

ko'rsatmaydigan, uni yanada takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xususiyatga ega ekani e'tirof etildi. Umuman, ta'lim dasturining barcha yo'nalishlari belgilangan akkreditatsiya mezonlari talablariga mos kelishi tasdiqlandi va dastur akkreditatsiya talablari bo'yicha muvofiq deb topildi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	02.07.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	4-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaae.uz
www.nqaae.uz



@nqaaeuz



@nqaaeuzbot

